

Sanoyeva Gulbar Rizoqulovna  
"Xorijiy tiillar" kafedrası dotsenti (Phd)  
Alfraganus universiteti  
[g.sanoyeva@afu.uz](mailto:g.sanoyeva@afu.uz)

## O'QUV JARAYONIDA TIL PORTFELI ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MODEL VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'quv jarayonida til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli hamda uni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda til portfelinig o'quvchining o'z-o'zini baholash, reflektiv fikrlash, til kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini individuallashtirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, elektron til portfeli, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar va bulutli texnologiyalarning mustaqil ta'limni samarali tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlari ochib beriladi. Taklif etilgan pedagogik model mustaqil ta'limni rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholash bosqichlarini o'z ichiga olgan holda, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, mas'uliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** til portfeli, mustaqil ta'lim, pedagogik model, raqamli texnologiyalar, elektron til portfeli, refleksiya, o'z-o'zini baholash, ta'limni individuallashtirish, raqamli kompetensiya, onlayn ta'lim platformalari.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЯЗЫКОВОГО ПОРТФЕЛЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** В данной статье анализируются педагогическая модель организации самостоятельного обучения на основе языкового портфеля в учебном процессе, а также вопросы использования цифровых технологий при её реализации. В исследовании научно обоснована роль языкового портфеля в развитии у обучающихся навыков самооценки, рефлексивного мышления, языковых компетенций и индивидуализации образовательного процесса. Кроме того, раскрываются дидактические возможности электронного языкового портфеля, онлайн-образовательных платформ, мобильных приложений и облачных технологий в эффективной организации самостоятельного обучения. Предложенная педагогическая модель охватывает этапы планирования, реализации, мониторинга и оценки самостоятельного обучения и направлена на развитие учебной мотивации, ответственности и цифровых компетенций обучающихся.

**Ключевые слова:** языковой портфель, самостоятельное обучение, педагогическая модель, цифровые технологии, электронный языковой портфель, рефлексия, самооценка, индивидуализация обучения, цифровая компетенция, онлайн-образовательные платформы.

## PEDAGOGICAL MODEL AND DIGITAL TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING BASED ON A LANGUAGE PORTFOLIO IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Annotation.** This article analyzes the pedagogical model for organizing independent learning based on a language portfolio in the educational process, as well as the use of digital technologies in its implementation. The study scientifically substantiates the role of the language portfolio in developing learners' self-assessment skills, reflective thinking, language competencies, and the individualization of the educational process. In addition, the didactic potential of electronic language portfolios, online learning platforms, mobile applications, and

cloud technologies in the effective organization of independent learning is revealed. The proposed pedagogical model includes the stages of planning, implementation, monitoring, and assessment of independent learning and contributes to the development of learners' academic motivation, responsibility, and digital competencies.

**Keywords:** language portfolio, independent learning, pedagogical model, digital technologies, electronic language portfolio, reflection, self-assessment, individualization of learning, digital competence, online learning platforms.

**Kirish.** Ta'lim tizimida olib borilayotgan zamonaviy islohotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modeliga o'tish mustaqil ta'limni samarali tashkil etish masalasini dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biriga aylantirdi. Xususan, chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchining shaxsiy faolligi, o'z-o'zini nazorat qilish, reflektiv fikrlash va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda til portfeli o'quvchining til kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni hujjatlashtirish hamda mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Til portfeli konsepsiyasi Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa til portfeli (European Language Portfolio) g'oyalariga asoslanib, o'quvchilarning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini baholash va rivojlantirishga xizmat qiladi. U nafaqat baholash vositasi, balki o'quvchining o'z-o'zini baholashi, o'quv jarayonida refleksiya yuritishi va ta'lim maqsadlarini mustaqil belgilashini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ham muhimdir. Shuningdek, til portfeli ta'lim jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal integratsiyalashuvi til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Elektron til portfeli, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar, raqamli baholash vositalari va bulutli texnologiyalar o'quvchilarga o'z ta'lim faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni tahlil etish imkonini yaratmoqda. Bu esa mustaqil ta'lim jarayonining shaffofligi, uzluksizligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modelini ishlab chiqish, uning strukturaviy komponentlari, bosqichlari va funksional mexanizmlarini aniqlash hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu muammoni ilmiy jihatdan asoslash, pedagogik modelning samaradorligini tahlil qilish va ta'lim amaliyotiga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida mustaqil ta'limni rivojlantirish masalasi ko'plab pedagog va metodist olimlar tomonidan turlicha nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi[1]. Ayniqsa, til portfeli konsepsiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligi, reflektiv tafakkuri va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida baholanmoqda.

Til portfeliga asoslangan ta'lim bugungi kunda dunyo bo'ylab turli ta'lim muhitlarida talabalarining kasbiy rivojlanishini monitoring qilish maqsadida tobora keng joriy etilmoqda. An'anaviy ta'lim portfeli, odatda, qog'oz shaklida bo'lib, ma'lum turdagi papka yoki jildda tartibga solingan holda tashkil etilgan. Bunday portfel quyidagicha ta'riflanadi: "Portfel — bu talabaning sa'y-harakatlari, rivojlanishi va erishgan yutuqlarini namoyish etuvchi, maqsadli ravishda tanlangan talaba ishlarining to'plamidir. Ushbu to'plamga mazmunni tanlashda talabaning ishtiroki, tanlash mezonlari, baholash mezonlari hamda talabaning reflektiv faoliyatini tasdiqlovchi dalillar kiritilishi lozim"[2]. Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa til portfeli konsepsiyasi til o'rganishda mustaqil ta'limni tashkil etishning asosiy modeli sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til portfeli o'quvchining til kompetensiyalarini hujjatlashtirish bilan bir qatorda, uning o'z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlaydi. Yevropa tadqiqotchilari til portfelini refleksiya, o'z-o'zini baholash va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish vositasi sifatida talqin etadilar. Bu modelda mustaqil ta'lim o'quvchining ichki motivatsiyasi va ongli faoliyati bilan bevosita bog'liq.

Mahalliy olimlardan N. Maxmaraimova til portfelini ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirish vositasi sifatida tahlil qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, til portfeli o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasiga mos ravishda mustaqil ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Olimaning yondashuvida til portfeli faqat baholash vositasi emas, balki pedagogik muloqot va reflektiv o'zaro aloqani ta'minlovchi didaktik resurs sifatida talqin etiladi. Bu jihat uni ayrim xorijiy modellardan farqlaydi, chunki ayrim G'arb tadqiqotlarida portfel ko'proq hujjatlashtirish funksiyasiga urg'u beradi[3].

Sh. Usmonova til portfelini kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning yordamida o'quvchilarda lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni izchil rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, til portfeli mustaqil ta'limni tizimli rejalashtirish va natijalarni monitoring qilish imkonini beruvchi pedagogik mexanizm vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv Yevropa modeliga yaqin bo'lsa-da, unda milliy ta'lim tizimi xususiyatlari va o'quvchilarning madaniy konteksti hisobga olinishi bilan farqlanadi[4].

Raqamli texnologiyalar masalasida xorijiy pedagoglar elektron til portfelining afzalliklarini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, elektron portfel mustaqil ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi, o'quvchining o'z rivojlanish dinamikasini ko'rishiga yordam beradi va o'qituvchi bilan teskari aloqani kuchaytiradi. Shu bilan birga, ayrim olimlar raqamli texnologiyalarning haddan tashqari ko'pligi o'quvchining diqqatini chalg'itishi mumkinligini ham qayd etadilar.

O'zbek pedagogik tadqiqotlarida esa raqamli texnologiyalar ko'proq ta'lim samaradorligini oshiruvchi yordamchi vosita sifatida baholanadi. Masalan, elektron til portfeli, onlayn platformalar va mobil ilovalardan foydalanish mustaqil ta'limni nazorat qilish va baholashni engillashtirishi, biroq pedagogik rahbarlik muhimligini yo'qotmasligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv xorijiy modellar bilan solishtirilganda, o'qituvchining etakchi roli saqlanib qolishi bilan ajralib turadi[5].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy qarashlarda til portfeli asosan o'quvchiga yo'naltirilgan, avtonom ta'lim modeli sifatida talqin qilinsa, mahalliy tadqiqotlarda u pedagogik boshqaruv va metodik yo'naltirish bilan uyg'unlashgan model sifatida ko'riladi. Har ikkala yondashuvning ijobiy jihatlarini integratsiyalash mustaqil ta'limni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shunday qilib, olimlarning qarashlarini taqqoslash asosida aytish mumkinki, til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali pedagogik modeli refleksiya, o'z-o'zini baholash, individuallashtirish va raqamli texnologiyalarni oqilona qo'llash tamoyillariga tayanishi lozim. Bu esa o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning mustaqil o'rganish, mas'uliyat va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Natijalar va muhokama.** Mazkur tadqiqot o'quv jarayonida til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli hamda uni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalarini nazariy va tahliliy jihatdan o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til portfeli zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini oshiruvchi, reflektiv fikrlashini rivojlantiruvchi va til kompetensiyalarini tizimli shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Ilmiy tahlil asosida aniqlanishicha, xorijiy pedagogik yondashuvlarda til portfeli asosan o'quvchiga yo'naltirilgan avtonom ta'lim modeli sifatida talqin qilinadi va unda o'z-o'zini baholash, mustaqil rejalashtirish hamda shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda esa til portfeli mustaqil ta'limni pedagogik boshqaruv, metodik yo'naltirish va nazorat bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llash zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuvlar o'rtasidagi farqlar ta'lim tizimlarining milliy xususiyatlari va pedagogik an'analari bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik model mustaqil ta'limni rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholash bosqichlarini o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida asoslandi. Mazkur modelda elektron til portfeli, onlayn ta'lim platformalari, mobil ilovalar va bulutli texnologiyalardan oqilona foydalanish o'quvchilarning til kompetensiyasi bilan bir

qatorda ularning raqamli savodxonligi, o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Elektron til portfeli chet tilini o'qitish va o'rganish jarayonini samarali tashkil etish hamda ta'lim natijalarini yaxshilash imkonini beruvchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Elektron til portfeli talabalarga nafaqat tilni o'rganish, balki zamonaviy ta'lim talabi bo'lgan mustaqil ta'limni amalga oshirish uchun ham tizimli asos yaratadi. Mustaqil ta'lim faol o'quvchilarni shakllantirishni nazarda tutib, ularning o'z faoliyati va muvaffaqiyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini talab etadi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limning samarali bo'lishida o'qituvchining metodik rahbarligi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Elektron til portfeli o'quv jarayoni davomida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi hamda tanqidiy-reflektiv fikrlash uslubining rivojlanishiga xizmat qiladi[6]. U orqali o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuni ta'kidlash joizki, talabalarning aksariyati elektron til portfelini foydali ta'lim vositasi sifatida baholashga qaramay, ayrim o'quvchilar o'z portfellarini mustaqil yaratish borasida etarli darajada ishonchga ega emasliklarini bildiradilar. Ushbu vositadan samarali foydalanish o'qituvchidan yuqori darajadagi mas'uliyat, nostandart fikrlash, shuningdek, portfellarini samarali loyihalash va boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatadiki, elektron til portfelini ta'lim jarayoniga joriy etish puxta rejalashtirilishi, to'g'ri loyihalashtirilishi va sinovdan o'tkazilishi lozim. Faqat shundagina u haqiqatan ham samarali o'qitish va baholash vositasiga aylanishi, ta'lim jarayonini boyitishi hamda uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

**Xulosa.** Til portfeli asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ularning ta'lim jarayoniga ongli va faol munosabatini shakllantiradi hamda ta'limni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik rahbarlik, metodik muvofiqlik va nazorat mexanizmlarini saqlab qolish mustaqil ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi ham e'tiborga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, til portfeli asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash zamonaviy ta'limning dolzarb talabi bo'lib, uning amaliyotga tatbiqi ta'lim sifati, o'quvchilarning til kompetensiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelgusida til ta'limi metodikasini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chau, J. and Cheng, G. (2010) Towards understanding the potential of e-portfolios for independent learning: A qualitative study. *Australasian Journal of Educational Technology*, 26(7), pp. 932-950.
2. Paulson, F.L., Paulson, P.R., & Meyer, C. A. (1991) What makes a portfolio a portfolio? *Educational Leadership*, 48 (5), pp. 60-63.
3. Maxmaraimova, S. T. (2017). *Lingvokulturologiya*. Cho'lpon nomidagi nashriyot.
4. Usmonova, S. (2019). *Lingvokulturologiya*. Fan va texnologiyalar.
5. Sanoyeva G. R. NEW TRENDS OF TEACHING ENGLISH: STUDENT-CENTERED AND TEACHER-CENTERED CLASSROOM MANAGEMENT //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 51. – C. 47-48.
6. Sanoyeva G. R. THE FEATURES OF PHRASEOLOGICAL SYNONYMIC ROWS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 102-107.